

## 2024-yil davomida X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi va uning hududiy bo'limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati yuzasidan

### TAHLILIY MA'LUMOT


Markaz va uning hududiy bo'limlarida jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlarni va bevosita kelib tushgan murojaatlarni qayd etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, ularni ko'rib chiqish ustidan monitoring va nazorat qilish bo'yicha elektron axborot tizimini joriy etish hamda yuritish orqali murojaatlar bilan ishlashda “[smartoffice.adliya.uz](https://smartoffice.adliya.uz)” elektron dasturidan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Markazga kelib tushgan murojaatlarning statistik hisobi yuritilib, har chorak yakuniga ko'ra murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish ishlari amalga oshirilgan.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markaziga **2024-yil davomida** davomida (*keyingi o'rinlarda – hisobot davrida deb yuritiladi*) jami **651 ta** murojaatlar kelib tushgan bo'lib, kelib tushgan murojaatlardan **541 tasi** ariza, **109 tasi** shikoyatlar, 1 ta taklifdan iborat.

2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda, murojaatlar soni 98 taga kamaygan, xususan takliflar 11 taga, arizalar 92 taga kamaygan. Shikoyatlar soni 5 taga ortgan.



Shundan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali jami **182 ta** murojaatlar kelib tushgan.

<b>Virtual qabulxona orqali kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha</b>						
<b>Jami murojaatlar soni</b> (2+3+4+5+6+7)	Shundan					
	Qanoatlantirilgan	Tushuntirish berilgan	Ko‘rmasdan qoldirilgan	Rad etilgan	Tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan	O‘rganish jarayonida
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
<b>182</b>	<b>9</b>	<b>169</b>			<b>1</b>	<b>3</b>

Markazga kelib tushgan shikoyatlar xususiyatiga ko‘ra, **90 tasi** ekspertiza o‘tkazish yuzasidan, xususan davlat sud ekspertlari tomonidan berilgan xulosa va mutaxassis fikrlari natijasidan norozi bo‘lib, **19 tasi** boshqa masalalarda yo‘llanganligi aniqlandi.

Shikoyatlar ko‘rib chiqish natijasiga ko‘ra 106 tasi hal etilgan bo‘lib, shundan, 105 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan, 1 tasi qanoatlantirilgan va 2 ta shikoyat tegishligi bo‘yicha ko‘rib chiqish uchun boshqa tashkilotga yuborilgan. 1 ta shikoyat o‘rganish jarayonida bo‘lib, 2025-yilning 1-choragiga qoldiq bo‘lib o‘tgan.

<b>Bevosita Markaz va uning hududiy bo‘limlariga kelib tushgan shikoyatlar bo‘yicha</b>						
<b>Jami murojaatlar soni</b> (2+3+4+5+6+7)	Shundan					
	Qanoatlantirilgan	Tushuntirish berilgan	Ko‘rmasdan qoldirilgan	Rad etilgan	Tegishligi bo‘yicha boshqa tashkilotlarga yuborilgan	O‘rganish jarayonida
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>7</b>
<b>109</b>	<b>1</b>	<b>105</b>	<b>0</b>	<b>0</b>	<b>2</b>	<b>1</b>

2024-yil davomida Markazning o‘ziga kelib tushgan murojaatlarning asosiy qismi bo‘limlar kesimida tahlili quyidagicha:

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi – 134 ta

Sud-qurilish-texnik ekspertizasi bo‘limi – 99 ta

Sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi - 50 ta


Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi – 45 ta

Tovarshunoslik ekspertizasi bo‘limi – 21 ta

Sud iqtisodiy ekspertizasi bo‘limi -17 ta

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasiga kelib tushayotgan murojaatlarning asosiy qismi DNK ekspertiza o‘tkazish masalasidadir.

Hisobot davrida Markazga kelib tushgan jami 651 ta murojaatning 176 tasi (27%) qanoatlantirilgan va 443 tasi (68 %) bo‘yicha murojaat muallifiga huquqiy tushuntirish berilgan, 1 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan, 14 tasi (2%) tegishliligiga ko‘ra ko‘rib chiqish boshqa tashkilotga yuborilgan. 17 ta murojaat nazoratda 2025-yil 1-chorakka qoldiq bo‘lib o‘tgan.



Markaz va uning hududiy bo‘limlariga kelib tushgan har bir murojaatni “**smartoffice.adliya.uz**” elektron hujjat almashinuv dasturiga kiritish, murojaatni to‘liq o‘rganish hamda ularga qonunda belgilangan muddatlarda javob berish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib, murojaatlar bilan ishlash tizimini yanada samarali tashkil etish chora tadbirlari ko‘rib borilmoqda.

Markaz Ilmiy kengash yig‘ilishlarida va rahbariyat huzuridagi tezkor yig‘ilishlarda murojaatlarni ko‘rib chiqishda aniqlangan xato va kamchiliklar doimiy ravishda muhokama qilinib, kamchiliklarni bartaraf etish, murojaatlarni ko‘rib chiqish yuzasidan nazorat ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha tegishli tavsiya va ko‘rsatmalar berib kelinmoqda.

Xususan, shikoyatlar bo‘lim va laboratoriya kesimida tahlil qilinganda murojaatlarning 30 tasi Sud-qurilish ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha, 20 tasi Sud-avtotexnika ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha, 13 tasi Hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi, 11 tasi Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha, 5 tasi Tovarshunoslik ekspertizasi yo‘nalishi bo‘yicha, 4 tasi Sud-iqtisodiy ekspertizasi yo‘nalishi, qolgan qismi boshqa yo‘nalishlarda ekanligi aniqlandi.

Markaz tomonidan ekspertlik faoliyati yuzasidan kelib tushayotgan va ijtimoiy tarmoqlarda aholi tomonidan bildirilayotgan fikrlar o‘rganib borilmoqda.

Ushbu masalalar asosli deb topilgan hollarda Markazdagi muhokama qilib boriladi.

Shuningdek, **murojaatlar Markaz hamda vazirlik tomonidan ham muntazam ravishda tahlil qilinib, Markazga ko‘rsatma xati kiritilgan.** Xususan,

1. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, “Ibn-Sino” ko‘chasi, 101/2-uyda joylashgan “Raupov Otabek Jurabekovich” advokatlik byurosi advokati O. Raupovning Markaz Navoiy viloyat hududiy bo‘limi eksperti E. Shaykulovning

xulosasidan norozi bo‘lib, bir qator savollarga javob berishni so‘rab pm.gov.uz orqali qilgan murojaati joriy yilning 19-fevral kuni Adliya vazirligiga (kirim raqami: 3/3-268) kelib tushgan.

Vazirlik tomonidan aniqlanishicha, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Buxoro shahar bo‘limi inspektori A. Azimovning 2023-yil 16-oktabrdagi “Sudga oid tovarshunoslik ekspertizasi tayinlash to‘g‘risida”gi qarori 2023-yil 16-oktabrda Markazning Navoiy viloyat bo‘limiga kelib tushgan va qaror ijrosi bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish bo‘lim eksperti E. Shaykulovga yuklatilgan.

Ekspert E. Shaykulov tomonidan 2023-yil noyabr oyida baholanayotgan obyektlarni 2022-yil iyun oyidagi bahosini aniqlashda faqatgina og‘zaki (telefon orqali) Toshkent shahridagi sotuvchilardan olingan ma‘lumotlardan foydalanganligi ma‘lum bo‘lgan.

Vaholanki, 2024-yil 1-yanvargacha amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standartining (ro‘yxat raqami 3239, 2020-yil 4-iyun) 22-bandiga ko‘ra, agar baholashga oid vazifa baholovchidan tashqari boshqa shaxsdan olinadigan axborotdan foydalanishni nazarda tutsa, u holda bunday axborot qanchalik ishonchli ekanligi hamda bu axborotga baholash haqidagi hisobotning obyektivligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan tarzda qanchalik tayanish mumkinligi tahlil qilinishi kerak. Baholovchiga taqdim etilgan axborotlar tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Taqdim etiladigan axborotning to‘g‘riligi yoki ishonchliligini tasdiqlashning imkoni bo‘lmagan hollarda bunday axborotdan foydalanilmasligi kerak.

Mazkur Standartning 97-bandiga muvofiq, baholash yondashuvlari qiyosiy yondashuv, daromad yondashuvi hamda xarajat yondashuvidan iboratligi ko‘rsatilgan bo‘lib, ekspert E. Shaykulov tomonidan 2023-yil noyabr oyida baholanayotgan obyektlarni 2022-yil iyun oyidagi bahosini faqatgina qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda aniqlagan.

Biroq, Standartning 103-bandiga asosan qiyosiy yondashuv usullari taqqoslanuvchi baholash obyektlarining faol bozori mavjud bo‘lganda samarali bo‘lib, obyektning haqiqatan ham bozor qiymati haqida tasavvur beradi.

Shuningdek, ekspert tomonidan rasmiylashtirilgan ekspertiza xulosasida baholanayotgan tovarlarning 2022-yil iyun oyidagi analoglariga nisbatan narx ma‘lumotlari Markazning ichki ma‘lumotlar bazasidan olingan holda 2022-yil iyun oyidagi o‘rtacha bozor bahosi aniqlanganligi ko‘rsatilgan. Vaholanki, Markazda baholash faoliyatiga oid o‘tkazilayotgan tadqiqotlar natijalarining elektron bazasi yaratilmasdan kelinmoqda.

2. Navoiy viloyati, Navoiy shahar, “Ishonch” MFY, A. Navoiy ko‘chasi, 46-uy, 11-xonadonda yashovchi fuqaro E. Iskandarovning Markazning Navoiy viloyat hududiy bo‘limi sud ekspertining ekspertiza xulosasidan hamda boshqa masalalardan norozi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yo‘llagan murojaati 2024-yil 11-martda vazirlikka kelib tushgan.

Vazirlik tomonidan aniqlanishicha, Navoiy shahar IIB huzuridagi Tergov bo‘limi bo‘linma boshlig‘i L. Ro‘ziyevning 2022-yil 17-martdagi “Sudga oid

tovarshunoslik ekspertizasini tayinlash to'g'risida"gi qarori 2022-yil 18-martda Markazning Navoiy viloyat hududiy bo'limiga kelib tushgan hamda ushbu qaror ijrosi bo'yicha tadqiqot o'tkazish ekspert E. Shaykulovga yuklatilgan.

Ekspert E. Shaykulov tayinlovchi organ tomonidan ekspertga namuna sifatida taqdim etilgan 1 dona 50x50 sm o'lchamdagi alyumin plitkani bozor bahosini aniqlashda "Sud-tovarshunoslik ekspertizasini o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari" nomli uslubiy qo'llanmasining "metalloprokat jismoniy holatini tekshirishda eskirish koeffitsiyentini aniqlash ekspert baholash shkalasi"dagi "nisbatan qoniqarli" bandning eskirish koeffitsiyentiga muvofiq 65 % eskirish qo'llanilgan holda qoldiq qiymati hisoblangan.

Ma'lumot uchun, mazkur uslubiy qo'llanma Markaz Ilmiy kengashining 2005-yil 30-sentabrdagi 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan, shuningdek, 2018 va 2022-yillarda tegishli o'zgartirishlar kiritilgan.

Vaholanki, 2024-yil 1-yanvargacha amalda bo'lgan O'zbekiston

Respublikasining Yagona milliy baholash standarti (ro'yxat raqami 3239, 2020-yil 4-iyun) bilan tasdiqlangan Tovar-moddiy zaxiralarni baholash (10-son MBS) metodikasining 35-bandida jismoniy holatning ekspert baholari shkalasiga muvofiq aniqlanadigan ekspert hisob-kitobi usullari tavsiflari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra "Qoniqarli" holatdagi tovar qiymatining yo'qotilishi "41-60 %" etib belgilangan.

Shuningdek, yangi tahrirda qabul qilingan va 2024-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Yagona milliy baholash standarti (ro'yxat raqami 3487, 2023-yil 28-dekabr) bilan tasdiqlangan "Tovar-moddiy zaxiralar qiymatini baholash" Milliy baholash standartiga (12-son MBS) metodikasining 35-bandida ham xuddi shunday tovar qiymatining yo'qotilish foizlari qayd etilgan.

Bundan tashqari, Markazning mas'ul xodimlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda, o'rganishda hamda murojaat muallifiga javob berishda murojaatdagi har bir holatlarga batafsil va to'liq javob berilmasligi holatlari uchramoqda.

Jumladan, Navoiy viloyati, Navoiy shahar, "Ishonch" MFY, A. Navoiy ko'chasi, 46-uy, 11-xonadonda yashovchi fuqaro E. Iskandarovning 2024-yil 18-fevralda pm.gov.uz portal orqali (kirim raqami: 42076-r/24-son) qilgan murojaatiga Markaz tomonidan 2024-yil 26-fevralda 29-20-3/1-3-son javob xati yuborilgan.

Biroq, ushbu javob xatida murojaat muallifining savollariga to'liq javob berilmaganligi natijasida fuqaro ushbu holatdan norozi bo'lib 2024-yil 11-martda Adliya vazirligiga takroran murojaat qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda murojaatlarni ko'rib chiqishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan **quyidagi takliflar bildiriladi:**

1. Murojaatlarni ko'rib chiqish, hal etish va javob xatlarini yuborishda sohaga oid amaldagi qonun hujjatlari talablariga hamda muddatlariga qat'iy rioya qilish;

**2.** Kelib tushgan murojaatlarning to'liq va sifatli hal etilishini ta'minlash maqsadida zaruriyatga ko'ra ularni joyiga chiqib o'rganish amaliyotini yo'lga qo'yish;

**3.** Murojaatlar ko'p tushayotgan hududlarda sayyor qabullarni o'tkazish va sayyor qabullar davomida keng aholi e'tiboriga Markaz vakolat doirasi va sohaga oid qonunchilikdagi yangiliklarni yetkazib borish;

**4.** Tegishliligi bo'yicha yuborilayotgan murojaatlarni tahlil qilgan holda ularning oshib borish tendensiyalariga e'tibor qaratib, muammoning yechimini topish va kelgusida bu kabi murojaatlarning kamayishiga erishish choralarini ko'rish;

**5.** Markaz xodimlari tomonidan targ'ibot qilish jarayonlarida shikoyatlar ko'paygan sohadagi qonun hujjatlari normalarini targ'ib qilishga alohida etibor berish, bunda ommaviy axborot vositalari orqali muammoli masalalar bo'yicha chiqishlar va maqolalarni chop etish choralarini ko'rish.